

Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Toshkent davlat agrar universiteti

REFERAT

INSONPARVARLIK –
XALQIMIZNING EZGU
FAZILATI !

Ummatov Ilyos 3-75 guruh

Toshkent-2014

Reja:

- 1. Vatan - sajdagoh kabi muqaddasdir.**
- 2. Insonparvarlik - inson va jamiyat ma'naviy qiyofasining mezoni.**
- 3. O'z millatiga sadoqatli bo'lish - yuksak burch.**

Kirish

Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga etgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir. Vatan deganda, hamisha o'zimiz tuqilib o'sgan, ko'z ochib ko'rgan, ta'lim-tarbiya olib voyaga etgan, necha-necha avlodu ajdodlarimiz yashab o'tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko'z oldimizga keladi. Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Abdulla Avloniy aytganidek: «qar bir kishining tuqilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. qar kim tuqilgan, o'sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimuslar shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik erlarni boshqa erlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turonlik oson erlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi.» Vatan - bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan - muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to'kilgan joy, insonni ijtimoiy etimlikdan asrovchi manzil, ma'naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o'choqidir. Inson uchun vatan yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambaqali ham bo'lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in'om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir. Prezidentimiz Islom Karimov keltirgan iboradek, «Vatan - sajdagoh kabi muqaddasdir». Vatanni eng oliy ne'mat singari boshimiz uzra baland ko'tarib, har on va har soniyada uning tuproqini ko'zlarga surtib, unga ta'zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir. Muqaddas xadisi shariflarda «Vatanni sevmoq iymondandir», deyilgan. Ya'ni iymoni but, vijdoni pok har bir inson vatanni sevadi, uni qanimlar ko'zidan asraydi, uning yashnashi va yashashi, hurligi uchun kurashadi. Vatan mehrini, vatan sehrini, uning

mo'tabarligiyu uluqvorligini so'z bilan ifodalash qiyin. xar bir barkamol inson vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda mavlono Fuzuliyning, mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo'lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo'lur edim, deb aytgan so'zlari har birimiz uchun bebaho o'g'itdir. Sho'rolar davrida milliy manfaat, vatanga, ona zaminga mehr-muhabbat degan his-tuyqular asta-sekin so'na boshladi. «Vatan» tushunchasi mavhum bir umumiy holga kelib qolgandi. qamma narsa - «Umumsovet» manfaatiga qaratilgandi. qar bir millat, xalq ming yillardan beri yashab kelayotgan o'z vatani uchun qayqurishga haqli emasdi. Inson uchun na davlat va saltanat, na toju taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng elolmaydi. Vatandan judolik - inson uchun katta baxtsizlikdir. Inson istagan joyda bir parcha nonga qornini to'yqazishi mumkin. Lekin Vatanning o'rnini hech narsa bosolmaydi. Vatanda yashash haqiqiy baxtdir. Mustaqillik tufayli biz o'zimizning haqiqiy vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergan eng oliy ne'matidir. Vatani mustaqil xalqning o'zi ham mustaqil bo'ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o'z qo'lida bo'ladi. Tarix o'zbek xalqining hozirgi Siz kabi avlodi zimmasiga qoyat buyuk vazifani yukladi. Bu Vatanimiz kuch-qudratini mustahkamlash, uning dovrug'ini olam uzra yoyish, shuhratiga shuhrat qo'shishdir. Bunda esa vatan, Prezidentimiz aytganidek, Siz kabi fidoyi vatanparvarlarga tayanadi. qar birimiz o'zimizning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatimiz, halol mehnatimiz bilan o'zimizdan keyingi avlodlarga ozod va obod vatanni qoldirishimiz kelgusi avlodlar, nasl-nasablarimiz oldidagi burchimizdir. Milliy mustaqillik - xalqimizda, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodimizda vatanparvarlik to'yqularining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. qozirda vatanparvarlik o'zining qanday qirralari bilan namoyon bo'layotirq Vatanparvarlikning mohiyati nimalarda, qanday amaliy ishlar faoliyatida namoyon bo'ladiq Umuman vatanparvarlik nima, uni qanday tushunmoq kerak, u haqda donishmandlar nima deganlarq quyida ana shular

haqida bahs yuritmoqchimiz. Avvalo, hozirgi o'zbek vatanparvarligi ota - bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O'zbekistonga hozir har daqiqada ulush qo'shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, uning eri, suvi, eli bilan chambarchas boqliq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko'rinishi, qirrasidir. Vatanparvarlikni eng oliy tuyqu sifatida o'tmish mutafakkirlari alohida qayd etganlar va o'zlari ham unga sodiq qolganlar. Endi ana shu qaydlardan ba'zilarini eslab o'tamiz. Tsitseron (Rumo notiqi va faylasufi). Bizga ota - onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrobalar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so'zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo'lsa, qaysi vijdonli odam u uchun jonini berishga ikkilanar ekan!Gegel (nemis faylasufi). Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi. Bayron (ingliz shoiri). Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi. Belinskiy (rus tanqidchisi). Kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham dahldor emas. Gyugo (frantsuz adibi). O'z vataniga doq tushirish - uni sotish degan so'z. Vatan tuyg'usi bo'lgan kishidagina vatanparvarlik jo'sh uradi. Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tuqiladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyqusini ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tuqilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi». Vatanparvarlik deganda esa yana qo'yidagilarni anglash joiz: - o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish; - qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachiqiday asrash va avlodlarga taqdim etish; - xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm-rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish; - ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning uluq ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish; - shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning

boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish; - Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish; - asrimizning yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qataqonlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatimiz gullarini unutmaslik; - bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir. Vatandarparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachiqiday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir. Vatandarparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish: - ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatandarparvarlikning belgisidir; - vatandarparvarlik – xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir. Vatandarparvarlik haqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatandarparvarlikning oliy ramzlari haqida so'zlamasdan iloj yo'q. Vatandarparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayroqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida 180 tadan ortiq mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida maqrur hilpirab turishini ko'rish va his etish naqadar katta baxt, insonni naqadar kuchli bir hissiyotga chulqab oladi... Prezidentimiz Islom Karimov juda to'qri ta'kidlab o'tganidek: «O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayroqi, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ona vatan - O'zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat to'yqusini tarbiyalaydi». Davlatimiz mukofotlari - «O'zbekiston qahramoni» oliy unvoni, orden va medallar, faxriy unvonlar ham mamlakatimiz fuqarolarida o'z Vatandan qururlanish to'yqularini oshirishga xizmat qiladi. O'z milliy valyutamiz so'mimiz ham

vatanparvarlik ramzidir. Xullas, Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «O'zbekiston - muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan er, o'zimiz yotadigan er. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyqotish bugungi kunning eng ustivor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi». Ikkinchi masalaning bayoni. Vatanparvarlik tushunchasi insonparvarlik tushunchasi bilan uyqundir. Vatanparvarlik uchun intilish, vatanparvarlik uchun kurashning zaminida insonparvarlik yotadi. Insonparvarlik bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. U purma'no va sermazmun tushunchadir. Insonparvarlik o'zbek xalqining ajralmas xislati tarzida ko'zga tashlanadi. qur'oni Karim insonparvarlik qoyalari asosiga qurilgan. Muhammad alayhissalom hadislari shu qoyalarga boy hikmatlar majmuasi sanaladi. Insonparvarlik kishilarning bir-biriga hurmatida, qadr-qimmatida, mehr-shafqatida, diyonatda, o'zaro ko'maklashuvda, hamdardlikda, boshqalar qayqusiga sherik bo'lib, quvonchidan va baxtidan sevinishda, xalq baxti va yutuqlaridan faxrlanishda ko'rinadi. O'zbek xalqining turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanishi, yaxshi qo'shnicilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati kabi qadriyatlar insonparvarlik qoyalari bilan suqorilgan. O'zbek xalqi bir umr mehr-shafqatli bo'lgan, barchaga yordam qo'lini cho'zgan. O'zbek xalqi o'zining insonparvarligini fashizmga qarshi kurash yillari etim bolalarning boshini silab o'z tarbiyasiga olib yorqin namoyon etdi. O'zbek xalqi doimo umuminsoniyat dardini kuylab kelgan. Al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ibn Sino, az-Zamahshariy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Ogahiy asarlaridagi qoyalar - insonparvarlik ruhi bilan ajralib turadi. Xususan, Navoiy ijodida insonparvarlik alohida ahamiyat kasb etadi. Uningcha, vatanga, xalqqa sadoqat eng avval uning taqdiri ustida qamxo'rlikdan iboratdir. Insonga nisbatan beparvolik, uning taqdiri va baxtu saodati ustidagi qam emaslik sharafli inson uchun tamomila yotdir. Navoiyning barcha-barchani insonga qamxo'r

bo'lishga chaqirgan, insonparvarlikni kuylagan qo'yidagi bayti asrlar osha hammamiz uchun ibrat yangliq yangrab turibdi:

Odami ersang, demagil odami,

Oniki, yo'q xalq qamidin qami.

Navoiy ijodida bu mavzuning alohida o'rin egallaganligi tahsinga sazovordir. U nafaqat badiiy ijodda, balki o'z amaliy faoliyatida ham yuksak insonparvarlikka sodiq qolgan mutafakkirdir. U xalq uchun, el-ulus uchun, beva-bechora, etim-esirlar uchun madrasalar, tabobat xonalar, shifo maskanlari qurdirgan. Doshqozonlarda ovqat pishirib tekinga tarqatgan. Dardmanlarga bepul tabobat ko'rigi uyushtirib tibbiy yordam bergan. Bunday insonparvarlik namunasidan hammamiz har qancha o'rnak olsak arziydi. Mustaqil O'zbekiston otliq davlatimizning butun siyosati insonparvarlik qoyalari bilan suqorilganligi va uni amaldagi namunasi ekanligi bilan har birimiz har qancha faxrlansak arziydi. Jumhuriyatimiz hokimiyati inson huquqlari va demokratiyaga oid masalalarni maxsus qonun bilan belgilab qo'yibdi. Prezidentimiz va O'zbekiston davlatining eng uluqvor va insonparvarlik qoyalaridan biri – ichki va tashqi tinchlik siyosatidir. Inson tuqilgan ekan, u yashashi kerak. Yashash uchun tinchlik zarur. Demak, davlatimizning tinchlik siyosati

insonparvarlik siyosati mazmuni bilan yo'qirilgan.

O'zbekiston davlatining ekologik siyosati ham insonparvarlik mazmuni bilan boqlangan. Ekologiya buzilar ekan, inson salomatligi yomonlashadi. Inson nosoqlom ekan, bu jamiyatdagi nosoqlomlikni keltirib chiqaradi. Mamlakatimizda «Soqlom avlod uchun» dasturining ilgari surilganligi insonparvarlikka qaratilgan katta tashabbusdir. Mustaqil O'zbekiston o'z halqining salomatligi haqida qayqurar ekan, bunga milliy boylik sifatida qaraydi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'zining insonparvarlik qoyalari bilan ajralib turadi. Bu haqda Islom Karimov shunday

yozadi: «Shu ko'hna zamin odamlari ko'nglida ustivor bo'lgan adolat, haqiqat, iymon, mardlik, tantilik, baqri kenglik kabi uluq xislatlar bu muborak hujjatdan munosib o'rin olgan». Bu tarixiy hujjatda insonparvarlik o'z ifodasini to'la topgan. Chunonchi: «39-modda. qar kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab quyilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas». Davlatimizning asosiy qonuni o'zining insonparvarlik kafolati ustivorligi tufayli xalq oldida katta obro'-e'tiborga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan islohatlarning muhim tamoyilidan biri ijtimoiy siyosatga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bu to'qrida Islom Karimov shunday yozadi: «Islohatlarimizning muhim tamoyillaridan biri - aholining kam ta'minlangan tabaqasi, ya'ni qariyalar, nogironlar, bolalarini muhofaza qilish, ularni puxta himoyalashdir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, ish bilan ta'minlanishida har tomonlama yordam berish davlatimizning muqaddas burchidir». Bu erda Prezidentimiz Islom Karimovning insonparvarlik fazilati namoyon bo'lgan. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 1997 yilni «Inson manfaatlari»; 1998 yilni «Oila»; 1999 yilni «Ayollar»; 2000 yilni «Soqlom avlod» yili deb belgilanishida ham chuqur insonparvarlik ma'nosi yotadi. Insonparvarlikning ko'rinishlaridan biri bu insonni uluqlashdir. Inson tabiatning gultoji. U har qancha maqtovga loyiq zot sanaladi. Bu haqda qur'on va hadislarda, mutafakkirlar ijodida ajoyib, ibratli fikrlar aytilgan. Biz bu o'rinda «Sharq Gegeli» degan sharafli nomga sazovor bo'lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so'zlarini keltirish bilan cheklanamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar hurmat va ehtiromga sazovor zot deb biladi va bu haqda shunday deydi: «qar kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal'undir». qanday ajoyib fikr! Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va olijanobdir. Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan

yoshlari ruhiyatida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyqularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli va xuquqiy jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun vatanparvarlik va insonparvarlik tuyqularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim. Uchinchi masalaning bayoni. O'z millatiga sadoqatli bo'lish millatparvarlik bilan hamohang tushunchadir. Millatparvarlik bu har bir inson uchun yuksak burch sanaladi. O'z millatini sevmagan inson o'zini ham, Vatanini ham seva olmaydi. Millatparvarlik o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish yoki kamsitish kabi (millatchilik va shovinizm) jirkanch harakatlardan tubdan farq qiluvchi tuyqudir. Millatparvarlik o'z millatining birligini mustahkamlash, o'z tili, urf-odatlarini, an'analarini rivojlantirish, qadriyatlar va meroslarni ko'z qorachiqiday asrash, o'z millatining kelajagi uchun xizmat qiluvchi aql-zakovat (intellektni), salohiyatni (potetsial) rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirish yo'lida fidoyi bo'lishdir. Milliy o'zlikni anglashning muhim omili bo'lgan millatparvarlik tuyqusini shakllantirishda yaqin o'tmishda millatimiz manfaatlarini ko'zlab millatparvarlikning yorqin namunasini ko'rsatgan millatimizning sodiq farzandlari amalga oshirgan ishlarni tashviqot qilish katta ahamiyatga ega. Bugun F. Xo'jaev, A. Ikromov, A. Qodiriy, U. Nosir, A. Fitrat, I. Mo'minov, X. Abdullaev, Sh. Rashidov kabilarning nomlari millatparvarlikni o'zida yorqin mujassam etganligini yoshlarga tushuntirishimiz lozim. Ularning har biri Sho'rolar tuzumining eng murakkab, eng qiyin sharoitida millatimizning manfaatini, qadr-qimmatini, or-nomusini, tarixini, madaniyatini va ma'rifatini himoya qildilar. Millatimizning mustaqilligi uchun jon fido etdilar. Ulardan birlari millatimiz sharafini himoya qilibgina qolmay, uni jahon uzra ko'z-ko'z qilishda o'zlarini ayamadilar. Yana birlari esa ona zaminda millatimiz orasidan ulkan kadrlar etishib chiqishiga jonbozlik ko'rsatdi, boshqa birlari esa, yurtimizdan tashib ketilgan xomashyolar o'rnini to'ldirish uchun markazdan ko'proq texnika, texnologiya, fan yutuqlarini, mablaqlarini olib kelish yo'lida faollik ko'rsatdi. Bugun mustaqil

O'zbekistonning jahonda o'z munosib o'rnini topishi, millatimizning qadriyatini joyiga qo'yish ona zaminda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari bilan barqaror rivojlanish yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomi millatparvarlikning yorqin ifodasi sifatida xalqimiz qalbidan chuqur o'rin olgan.